Mamlakatda sug'urta xizmatini takomillashuvi yuridik va jismoniy shaxslarni turli xil tabiiy va stixiyali hamda tadbirkorlik xavf-xatarlari ortidan keladigan moliyaviy yo'qotishlarini qisman yoki to'liq qoplanishiga olib kelib bu vaziyat iqtisodiy taraqqiyotga o'z hissasini qo'shadi. Sug'urta jarayonidagi noaniqlikka yechim topish orqali muvaffaqiyatga erishish, xavfni baholashdan tortib strategik qarorlar qabul qilishga ko'maklashish sug'urta anderrayterlari zimmasidagi muhim vazifadir. Sug'urta xizmati har qachongidan ham ko'proq harakatdagi biznes ekanligini anglagan holda, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy va yuridik shaxslar faoliyati sug'urta xizmatlarisiz amalga oshirilmasligi haqidagi ma'lumotlarga tayanib xulosa qilsak ko'plab mamlakatlar YAIM da sug'urta xizmatlari salmoqli o'ringa egaligini ko'rishimiz mumkin. Sug'urta faoliyatini rivojlanish bosqichlari tahlil qilinsa, sug'urtada anderrayting xizmatini o'rni beqiyosdir. Anderrayting – bu jismoniy yoki yuridik shaxs haq evaziga moliyaviy tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladigan jarayon hisoblangan. Ushbu xavf odatda kreditlar, sug'urta yoki investitsiyalarni o'z ichiga olgan. "Anderrayter" atamasi har bir tavakkalchiga o'z nomini ma'lum mukofot evaziga qabul qilishga tayyor bo'lgan tavakkalchilikning umumiy miqdori ostida yozish amaliyotidan kelib chiqqan. O'zbekistonda sug'urta xizmatini takomillashtirish maqsadida sug'urtaga qabul qilinadigan xavf-xatarlarni har tomonlama chuqur tahlil qilgan holda javobgarlikka olish jarayonida anderrayting xizmatini zamon talablari asosida shakllantirish zaruriyati mavjud. So'nggi yillarda sug'urtada anderrayting xizmatiga sun'iy intellektni joriy etilayotganligi kuzatilmoqda. Sun'iy intellektning asosiy texnologiyalari bizning biznesimiz, uylarimiz va transport vositalarimizda, shuningdek, bizning shaxsimizda allaqachon qo'llanilmoqda. COVID-19 davridagi ma'lumotlar va taraqqiyot zanjiridagi kuzatilgan uzilish dunyo sug'urtachilari uchun raqamlashtirishni sezilarli darajada tezlashtirish kerak ekanligini bildirdi. Pandemiya davrida aksariyat tashkilotlar sun'iy intellektga katta sarmoya kiritmagan bo'lsa-da, raqamli texnologiyalarga e'tibor kuchayishi va o'zgarishlarni qabul qilishga tayyorligi ularni o'z faoliyatiga sun'iy intellektni qo'shish uchun yaxshi sharoit yaratadi[1].

1 https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/insurance-2030-the-impact-of-ai-on-the-future-of-insurance#/ "Sug'urta 2030 – AI ning sug'urta kelajagiga ta'siri" Ramnath Balasubramanian, Ari Libarikian, Dag Makelhani

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sug'urta sohasi zamonaviy iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, jismoniy shaxslar va xo'jalik yurituvchi subyektlarni turli moliyaviy manfaatlarini, sog'lig'ini, mol-mulkini tabiiy va moliyaviy xavf-xatarlardan himoya qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun samarali anderrayting xizmatlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Anderrayting xizmati sug'urta kompaniyalari tomonidan sug'urtalangan shaxsni sug'urta qilish bilan bog'liq risklarni baholash, tegishli mukofotlar va qoplamalarni aniqlash jarayoni hisoblanadi[2]. Sug'urta kompaniyalari anderrayting xizmatlarini doimiy ravishda takomillashtirish orqali nafaqat o'zlarining moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki sug'urtalanuvchilarga yanada sifatli xizmatlar ko'rsatadi.

Su'urta tizimida anderrayting xizmatlarini takomillashtirish sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligining ajralmas qismi bo'lib, ma'lumotlar tahlili, ilg'or texnologiyalar, mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvlar, uzluksiz treninglar va me'yoriy hujjatlarga rioya qilish integratsiyasi orqali sug'urta kompaniyalari o'zlarining anderrayting xizmatlarini yaxshilashlari alohida xarakterlanadi. Anderrayting xizmatlarini afzalliklarga risk ta'sirini kamaytirish, rentabellikni oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va bozorda raqobatbardosh ustunlik oshirish kiradi[3]. Oxir-oqibat, sug'urta kompaniyalarining rivojlanishi, o'zgaruvchan risk jarayonlariga moslashishi va ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlashi uchun mustahkam anderrayting jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Anderrayting xizmatlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash orqali kompaniyalarda moliyaviy risklarni boshqarish, rentabellikni saqlash va uzoq muddatli moliyaviy samaradorlikni oshirish qobiliyatiga bevosita ta'sir etadi.

Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda anderrayting xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha ko'plab olim ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Xususan, xorijlik iqtisodchi olim Devid Kammins sug'urta risklarni boshqarish va sug'urta sohasida yuqori baholangan sug'urta iqtisodiyoti, risklarni modellashtirish va anderrayting amaliyotlari[4] bo'yicha olib borgan tadqiqotlari moliya institutlari tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Olim, ilmiy ishlanmalarida sug'urta sohasida risklarni modellashtirish, sug'urtaning iqtisodiy tahlili[5], anderrayting amaliyotiga bo'yicha me'yoriy-huquqiy o'zgarishlarning sug'urta kompaniyalarida risklarni baholash, aktuariylar risklarni baholash hamda sug'urta risklarini baholashda kapitalning etralilik darajasini taqdim etgan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Daen Jan va Mishel Denuitlar sug'urta tizimida anderrayting sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan aktuar uslubi[6] bo'yicha risklarni modellashtirish va sug'urta matematikasiga doir keng qamrovli tadqiqotlar o'tqazgan. Olimlarning tadqiqotlarida sug'urta sohasining moliyaviy barqarorligiga aktuariylar, risklarni modellashtirish, sug'urta matematikasiga doir anderrayter risklari, statistik moliyadan olingan fanlararo yondashuvlar hamda sug'urta kompaniyalarining anderrayting amaliyoti bevosita ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotchilar ilmiy ishlanishlar natijasida su'urta sohasida aktuariylar va anderrayterlar uchun mavjud vositalar va metodologiyalarni boyitdi hamda sug'urta kompaniyalariga risklarni baholash va boshqarish bo'yicha ko'proq ma'lumotli va to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam berdi.

Xorijlik olim L. Brockett sug'urta sohasida anderrayting amaliyoti va risklarni baholash[7] bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim tadqiqotlarida sug'urtada anderrayting amaliyoti bo'yicha risklarni baholash, tegishli to'lovlarni aniqlash, yo'riqnomalar va siyosatlarni ishlab chiqish, sug'urta mahsulotlari va sug'urta egalari bilan bog'liq risklarni boshqarish, aktuariylar risklarni baholash, xatti-harakatlar va bozor omillarining o'rganishda inson xulq-atvori va bozor dinamikasi kabi omillarni o'rgangan holda matematik modellarida ta'sirni baholagan.

Yevropalik iqtisodchi olimlar Dicke va A. Arnoldlar o'z taqiqotlarida sug'urta iqtisodiyoti va risklarni baholash[8] bo'yicha keng qamrovli ilmiy ishlanmalar bilan sug'urta sanaotidagi anderrayting xizmatlariga ta'sir ko'rsatgan. Olimlar tadqiqotlarida sug'urta bozori dinamikasi, narx strategiyasi va sug'urtaning jismoniy shaxslar, korxonalar hamda makroiqtisodiy jarayonlarga ta'si bilan bog'liq masalalarni matematik va statistik modellardan orqali anderrayting xizmatlarini sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi oshishida hissa qoshgan.

Shuningdek, xorijlik olimlar tomonidan sug'urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlariga ta'sir etuvchi omillarini ko'plab ekonometrik modellar sihlab chiqilgan

---

2 Soye, Yinka Augustine, and Damola Lukmon Adeyemo. "Underwriting capacity and income of Insurance companies:(a case of Nigeria)." International Journal of Innovative Science and Research Technology 3.10 (2018): 731-738.

3 Acharyya, Madhu. "In measuring the benefits of enterprise risk management in insurance: An integration of economic value added and balanced score card approaches." ERM Monograph (2008): 1-25.

4 Cummins, J. David, and Patricia M. Danzon. "Price, financial quality, and capital flows in insurance markets." Journal of financial intermediation 6.1 (1997): 3-38.

5 Dhaene, Jan, et al. "The concept of comonotonicity in actuarial science and finance: theory." Insurance: Mathematics and Economics 31.1 (2002): 3-33.

6 Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. "Insurance versus self-insurance: A risk management perspective." Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.

7 Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. "Insurance versus self-insurance: A risk management perspective." Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.

8 Dicke, Arnold A. "The economics of risk selection." Genetics and Life Insurance: Medical Underwriting and Social Policy (2004): 64-6.

Xususan, Gen C. Lai anderraytingning bir qancha muhim jihatlari va uning sug‘urta kompaniyasi faoliyatiga ta’siriga e’tibor qaratgan[9]. Gen C. Lai risklarni baholash, premium sozlamalari[10], anderrayting amaliyotida bozor dinamikasi, iste’molchilarning xatti-harakatlari va iqtisodiy sanoat ko‘rsatkichlari, anderrayting siyosati[11] va ko‘rsatmalari da’vo tajribasi hamda daromadlilik va sug‘urta egasining qoniqishi ko‘rsatkichlari kabi o‘zgaruvchilarni bog‘liq va mustaqil omillar sifatida tanlagan. Olim ekonometrik tenglamalari natijasiga ko‘ra anderrayterlar va sug‘urta kompaniyalari uchun mavjud bo‘lgan vositalar va metodologiyalarni yaxshilagan bo‘lib, ularga risklarni baholash, yuqori narxlarni belgilash va kompaniyaning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qilishida o‘z tasdig‘ini topgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Meri A. Vayss sug‘urta industriyasida anderraytingning turli jihatlari[12] xususan, sug‘urta polislari va qoplamalari bilan bog‘liq risklarni baholash uchun metodologik ko‘rsatmalar, modellar va ma’lumotlarga asoslangan yondashuvlarni tadqiq qilgan. Olim tadiqoqtlarida ekonometirk tenglamalardan foydalangan hamda bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida narxlar strategiyasi, sug‘urta qoplamasi, sug‘urta mukofoti[13], sug‘urtalanuvchining risk profili, anderrayting qarorlari, sug‘urta shartnomlari kabi omillardan foydalangan. Olimning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki sug‘urta kompaniyalarida anderrayting xizmatlari narx qarorlarini qabul qilishda riskni baholashda muhim iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Xorijlik iqtisodchi olim Mishel Denuit sug‘urta sohasida aktuar fanlar jumladan sug‘urta va anderrayting[14] bilan bog‘liq bo‘lgan ekonometrik tadqiqotlar olib borgan. Denuitning aktuar sohasidagi tajribasi shuni ko‘rsatdiki, u anderrayting xizmatlari moliyaviy risklarni modellashtirishda bozor dinamikasi, yuqori narxlar va rentabellik kabi iqtisodiy jihatlarga ta’sirini ushbu qarorlar sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy ko‘rsatkichlariga qay ta’sir etishini o‘z ichiga olgan.

Olim tadqiqotlar natijasiga ko‘ra risklarni modellashtirish, anderrayting amaliyotining iqtisodiy oqibatlari va aktuar metodologiyalar bo‘yicha ilmiy tushunchalar aks etdi hamda sug‘urta kompaniyalariga anderrayting bo‘yicha ongli qarorlar qabul qilishda va moliyaviy barqarorlikni saqlashda yordam berdi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Andres, Christian va Andre Betzerlar sug‘urta iqtisodiyoti, risklarni baholash va anderrayting amaliyotlari sohasidagi tadqiqotlari sug‘urta sohasining muhim jihatlarini kengroq tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi[15].

Olimlar sug‘urta riskni baholashda anderraytingning asosiy komponenti sifatida, sug‘urta polislari va sug‘urta egalari bilan bog‘liq risklarni baholash va miqdoriy baholash kompaniya rentabellik ko‘rsatkichlari, da’volar tajribasi, sug‘urta shartnomalari kabi omillarni bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida tanlagan. Tadiqot natijalariga ko‘ra sug‘urta kompaniyalarida anderrayting va narxlash bo‘yicha asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot ko‘p o‘zgaruvchan vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilishni hisobga olgan holda, ekonometrik tenglamalarni shakllantirish uchun avtoregressiv taqsimlangan kechiqish (ARDL) modelidan foydalanildi.

Sug‘urta kompayalarida anderrayting xizmati va unga ta’sir qiluvchi omillarni ishlab chiqishda “O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (https://uzbekinvest.uz) ko‘rsatkichlarining 2017-yildan 2023-yilgacha jami 23 ta choraklik ma’lumotlaridan foydalanildi.

Shuningdek, tadqiqot asos sifatida ARDL modelidan foydalangan holda vaqt seriyalari ma’lumotlarining vizual matritsalari yaratildi. Turli tekshiruvlar jumladan, qaram va mustaqil o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsiya matritsalari baholandi, birlik-ildiz testlari orqali statsionarlik tekshirildi, bog‘langan testlar yordamida kointegratsiya tahlili o‘tkazildi va ARDL modeli yordamida regressiion tenglamalar ishlab chiqildi. Bundan tashqari, ARDL modeli asosida tuzilgan regressiya tenglamasi Gauss Markovning asosiy farazlariga muvofiqligi va Cusum yordamida diagnostik testdan o‘tkazildi. Tenglama, shuningdek, keyingi yilda mustaqil o‘zgaruvchilarning qaram o‘zgaruvchiga kechikkan ta’sirini o‘z ichiga oldi.

ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modeli yoki har qanday statistik modelni baholash odatda uning tadqiqot savoliga va ma’lumotlar to‘plamiga muvofiqligi, shuningdek, u ishlab chiqaradigan natijalar sifatiga bog‘liq. ARDL modeli vaqtli qatorlar ma’lumotlarini tahlil qilish uchun qimmatli vositadir, ayniqsa, o‘zgaruvchilar

---

9 Lai, Gene C., and Robert C. Witt. “Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis.” Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).

10 Lai, Gene C., et al. On Liability Insurance Crises. Working Paper, 45pp, 1997.

11 Lai, Gene C., and Robert C. Witt. “Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis.” Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).

12 Weiss, Mary A. “Systemic risk and the US insurance sector.” Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).

13 Weiss, Mary A. “Systemic risk and the US insurance sector.” Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).

14 Denuit, Michel, et al. Actuarial theory for dependent risks: measures, orders and models. John Wiley & Sons, 2006.

15 Andres, Christian, André Betzer, and Peter Limbach. “Underwriter reputation and the quality of certification: Evidence from high-yield bonds.” Journal of Banking & Finance 40 (2014): 97-115.

o'rtasidagi uzoq muddatli munosabatlarni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi[16]. ARDL modeli samaradorligini muqobil modellar yoki metodologiyalar bilan solishtirishda va uning nisbiy afzalliklarini aniqlash maqsadga muvofiqdir[17].

ARDL modelini baholash uning o'zgaruvchilar o'rtasidagi asosiy munosabatlarni aniqlash qobiliyatini, statistik qat'iyligini va tadqiqot savoliga amaliy ahamiyatini hisobga olishi lozim[18].

ARDL modeli tadqiqot modellashtirishda ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi bevosita va kengaytirilgan dinamika va munosabatlarni o'rganish imkoniyatini beradi[19]. Shuningdek, ARDL modeli bir o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning boshqalarga ta'sir qilish darajasi bo'yicha istiqbolni taklif etadi, bu nafaqat bevosita oqibatlarni, balki doimiy oqibatlarni ham o'z ichiga oladi[20].

ARDL modelining asosiy afzalliklaridan biri uning o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlardagi qisqa muddatli va uzoq muddatli dinamikani qamrab olish qobiliyatiga ega[21]. Bu, ayniqsa, bir o'zgaruvchidagi o'zgarishlarning turli vaqt oralig'ida boshqalarga qay darajada ta'sir etishini tahlil qilishda muhum ahamiyat kasb etadi. ARDL modeli dinamik model bo'lib, u bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning kechiqishlarini hisobga oladi. Bu vaqt seriyasi ma'lumotlarini aniqroq ko'rsatishga imkon beradi va o'zgaruvchilar ta'sirida mumkin bo'lgan vaqt kechiqishlarini hisobga oladi[22]. ARDL modeli moslashuvchan model bo'lib statsionar va statsionar bo'lmagan o'zgaruvchilarning turli kombinatsiyalarini o'z ichiga oladi. Bu moslashuvchanlik, ayniqsa, o'zgaruvchilar statsionarlik bo'yicha turli xil xususiyatlarga ega bo'ladi[23].

Shuningdek, ARDL modeli vaqt seriyalarini prognozlash uchun ishlatilishi mumkin, bu esa uni tarixiy ma'lumotlarga xususan, bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning kechikkan qiymatlariga asoslangan qaram o'zgaruvchining kelajakdagi qiymatlarini bashorat qilishda muhim[24]. Avtoregressiv taqsimlangan kechiqish (ARDL) modeli uchun quyidagi formula ifodalandi.

$$Y_t = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{t-1} + \alpha_2 Y_{t-2} + \ldots + \alpha_p Y_{t-p} + \beta_1 X_{t-1} + \beta_2 X_{t-2} + \ldots + \beta_q X_{t-q} + \gamma_1 Z_{t-1} + \gamma_2 Z_{t-2} + \ldots + \gamma_r Z_{t-r} + \varepsilon_t \quad (1)$$

Bu yerda,

$Y_t$ – t vaqtidagi bog'lik o'zgaruvchini ifodalaydi.

$Y_{t-1}$, $Y_{t-2}$..., $Y_{t-p}$ – bog'liq o'zgaruvchinig kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

$X_{t-k}$, $X_{t-k-1}$,..., $X_{t-k-q}$ mustaqil o'zgaruvchining kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

$Z_{t-1}$, $Z_{t-2}$..., $Z_{t-r}$ bog'liq o'zgaruvchilarga ta'sir e'tuvchi boshqa omillarning kechikkan qiymatlarini ifodalaydi.

$\alpha_0$, $\alpha_1$,... $\alpha_p$, $\beta_1$, $\beta_2$, ... $\beta_q$, $\gamma_1$, $\gamma_2$... $\gamma_r$ baholanadigan koeffisiyentlar qiymatlarni ifodalaydi.

$\varepsilon_t$ – t vaqtidagi xatolikni ifodalaydi

Tadqiqot bo'yicha bog'liq va mustaqli o'zgaruvchilar quyida keltirilgan. Unga ko'ra, y (bo'gliq o'zgaruvchi)- sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar soni, $x_1$ (mustaqil o'zgaruvchi) – sug'urta shartnomalari soni, $x_2$ (mustaqil o'zgaruvchi) – sug'urta mukofoti hamda $x_3$ (mustaqil o'zgaruvchi) – sug'uta qoplamasini anglatadi.

Tadqiqot bo'yicha ekonometrik tenglamani ishlab chiqishda quyidagi gipotezalar ilgari surildi.

- **Nol gipoteza ($H_0$):** Sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar soni, sug'urta shartnomalari soni, sug'urta mukofoti hamda sug'uta qoplamasini o'z ichiga olgan o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud emas.
- **Muqobil gipoteza ($H_a$):** Sug'urta kompaniasidagi anderrayterlar soni, sug'urta shartnomalari soni, sug'urta mukofoti hamda sug'uta qoplamasini o'z ichiga olgan o'zgaruvchilar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud. Shuningdek, haqiqatda ushbu munosabatlar milliy iqtisodiyotda sug'urta sohasi sharoitida alohida e'tiborga molik.

Tadqiqotninig birinchi bosqichida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha tahliliy grafik chizig'i quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ldi (1-rasmga qarang).

---

16 Mohseni, Mehrnoosh, and Feizolah Jouzaryan. "Examining the effects of inflation and unemployment on economic growth in Iran (1996-2012)." Procedia Economics and Finance 36 (2016): 381-389.

17 Özer, Mustafa, and Veysel Karagöl. "Relative effectiveness of monetary and fiscal policies on output growth in Turkey: an ARDL bounds test approach." (2018).

18 Ghouse, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. "ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus." (2018): 1-29.

19 Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. "Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach." The Pakistan Development Review (2008): 501-513.

20 Boufateh, Talel, and Zied Saadaoui. "Do asymmetric financial development shocks matter for CO 2 emissions in Africa? A nonlinear panel ARDL–PMG approach." Environmental Modeling & Assessment 25 (2020): 809-830.

21 Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. "Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach." The Pakistan Development Review (2008): 501-513.

22 Nkoro, Emeka, and Aham Kelvin Uko. "Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation." Journal of Statistical and Econometric methods 5.4 (2016): 63-91.

23 Jordan, Soren, and Andrew Q. Philips. "Dynamic Simulation and Testing for Single-Equation Cointegrating and Stationary Autoregressive Distributed Lag Models." R Journal 10.2 (2018).

24 Telfah, Duaa B., Nawal Louzi, and Tala M. AlBashir. "Water demand time series forecast by autoregressive distributed lag (ARDL) co-integration model." Journal of Water and Land Development (2021).




1-rasm: Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning vaqt bo'yicha grafik ko'rinishi[25]

1-rasmda ko'rsatilganidek, vaqtliq atorlar ma'lumotlar izchil vaqtinchalik mavsumiy tendensiyani namoyish etgan. Bunday sharoitda o'zgaruvchilarni vaqt bo'yicha o'zgartirish potentsial ta'sir etuvchi omillarni prognoz qilishning aniqligini oshiradi. Shunigdek grafik bo'yicha sug'urta qoplamsi 2021-2023-yil oralig'ida keskin tebranish holatini aks etgan.




2-rasm: Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning grafik matritsasi [26]




3-rasm: Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning grafik skatter jadvali[27]

25 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.
26 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.
27 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

2 va 3-rasmlarda ko'rsatilganidek, qaram o'zgaruvchi va o'ziga xos zichlik ssenariysini ifodalovchi xarakterli omillar o'rtasida mustahkam korrelyatsiya mavjud. Muhim bog'liqlni anglatuvchi ma'lumotlar nuqtasi kontsentratsiyasi ma'lumotlarning klasterlashuvini va o'qlar bo'ylab zich taqsimlanish pozitsiyaisni ifodalagan.

Tadqiqotning navbatdagi bosqichida stata dasturi asosida bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning bog'liqlik bo'yicha korrelatsion matritsasi keltirilgan(1-jadvalga qarang)

1-jadval: Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilanring o'zaro korrelyatsion matritsasi [28]

| Variables | (1) | (2) | (3) | (4) |
|---|---|---|---|---|
| (1) y | 1.000 | | | |
| (2) $x_1$ | 0.6012 | 1.000 | | |
| (3) $x_2$ | 0.4763 | 0.1273 | 1.000 | |
| (4) $x_3$ | 0.4135 | 0.0593 | 0.1670 | 1.000 |

1-jadvalga ko'ra, bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar omillar o'rtasida kuchli, o'rtacha va sezilarli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, korrelyatsiya matritsasi natija va xarakterli omillar o'rtasida multikollinearlikning yo'qligini ko'rsatadi.

Tadqiqot bo'yicha bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilarning statsionarlik holatini aniqlash uchun Unit-root testi o'tkazildi. (2-jadvalga qarang)

2-jadval: Bog'liq va mustaqil o'zgaruvchilar bo'yicha Unit-Root testi ko'rsatkichlari [29]

| O'zgaruvchilar | Test Statistic | 1% Critical Value | 5% Critical Value | 10% Critical Value | p-value for Z(t) |
|---|---|---|---|---|---|
| Bog'liq o'zgaruvchi (y) | -4.517 | -3.750 | -3.000 | -2.630 | 0.0003 |
| Mustaqil o'zgaruvchi ($x_1$) | -4.455 | -3.750 | -3.000 | -2.630 | 0.0000 |
| Mustaqil o'zgaruvchi ($x_2$) | -4.504 | -3.750 | -3.000 | -2.630 | 0.0003 |
| Mustaqil o'zgaruvchi ($x_3$) | -5.327 | -3.750 | -3.000 | -2.630 | 0.0000 |

2-jadvalga ko'ra, birlik-ildiz testi bog'liq o'zgaruvchi uchun (-4,517) statistik qiymatni va bashorat qiluvchi o'zgaruvchilar uchun (-4,455, -4,504 va -5,327) qiymatlarni berdi. Bundan tashqari, 1%, 5% va 10% ahamiyatlilik darajalaridagi kritik qiymatlar (-3.750, -3.000, -2.630) sezilarli darajada salbiy bo'lib, ular o'rtasida jiddiy assotsiatsiya borligini ko'rsatdi.

Unit-Root testi natijalariga ko'ra, qaram o'zgaruvchi va prognoz qiluvchi omillar statsionarlikni namoyon qilgani kuzatildi, bu ularning past MakKinnon qiymatlari va Z(t) 0,0000 ga tengligi bilan tasdiqlandi. Bundan tashqari, bog'liq va mustaqil oz'garuvchilarning dastlabki integratsiyasidan so'ng, birlik-ildiz testi natijalari ularning statsionarlikka erishishini tasdiqladi.

Tadqiqotga ko'ra ARDL modelidan foydalangan holda ekonometrik model qilab chiqildi. Quyida ARDL model asosida ekonometrik model keltirilgan.

$$\Delta y_{it} = c_0 + c_1\sum_{p=1}^{n}\Delta y_{i,t-p} + c_2\sum_{p=1}^{n}\Delta x_{1i,t-p} + c_3\sum_{p=1}^{n}\Delta x_{2i,t-p} + c_4\sum_{p=1}^{n}\Delta x_{3i,t-p} + \alpha_0 Y_{i,tp} + \alpha_2 x_{1i,t-1} + \alpha_3 x_{2i,t-1} + \alpha_4 x_{3i,t-1} + \varepsilon_{i,t} \quad (2)$$ [30]

Bu yerda:
$\Delta y_{it}$ – Sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar soni;
$y_{t-1}$ -Bir yil oldingi sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar soni;
$x_1$- sug'urta shartnomalari soni;
$x_2$ – sug'urta mukofoti;
$x_3$ – sug'uta qoplamasi;
$\Delta$ – birinchi farq koeffitsiyenti;
$c_0$ – kesma;
$c_1$, $c_2$, $c_3$, va $c_4$ – qisqa muddatli elastiklik koeffitsiyentlari;
$\alpha_1$, $\alpha_2$, $\alpha_3$, va $\alpha_4$ – uzoq muddatli dinamik ko'paytiruvchilar;
n – ortda qolgan had;
p – lag uzunligini ko'rsatadi.
Tenglama (2) chiziqli ARDL modelini bildiradi, u qisqa va uzoq muddatli prognozlarni ifodalaydi.

28 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.
29 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Shuningdek, navbatdagi qadamda ARDL modeli ekonometrik tenglamasi Stata dasturi asosida quyidagi jadvalda ishlab chiqildi (3-jadvalga qarang).

3-jadval: ARDL(1,2,2,2) modeli regression tenglama ko'rsatkichlari [30]

ARDL(1,2,2,2) regression
Number of obs = 21

R-squared = 0.9670
Adj R-squared = 0.9340
Log likelihood = 44.517891
Root MSE = 0.0421

| D. y | Coef. | Std.Err. | t | P>t | [95%Conf. | Interval] |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ADJ | | | | | | |
| y | | | | | | |
| L1. | -1.424 | 0.182 | -7.820 | 0.000 | -1.829 | -1.018 |
| LR | | | | | | |
| x1 | 0.408 | 0.085 | 4.800 | 0.001 | 0.219 | 0.598 *** |
| x2 | 0.330 | 0.074 | 4.490 | 0.001 | 0.166 | 0.494 *** |
| x3 | 0.641 | 0.088 | 7.310 | 0.000 | 0.446 | 0.837 *** |
| SR | | | | | | |
| x1 | | | | | | |
| D1. | -0.195 | 0.080 | -2.440 | 0.035 | -0.373 | -0.017 *** |
| LD. | -0.323 | 0.071 | -4.580 | 0.001 | -0.480 | -0.166 *** |
| x2 | | | | | | |
| D1. | -0.301 | 0.141 | -2.140 | 0.058 | -0.614 | 0.012 * |
| LD. | 0.114 | 0.065 | 1.750 | 0.110 | -0.031 | 0.260 |
| x3 | | | | | | |
| D1. | -0.615 | 0.103 | -5.950 | 0.000 | -0.845 | -0.385 *** |
| LD. | -0.296 | 0.065 | -4.560 | 0.001 | -0.440 | -0.151 *** |
| _cons | -2.106 | 0.850 | -2.480 | 0.033 | -4.000 | -0.212 *** |

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib, ARDL (1,2,2,2) modeli yuqori aniqlanish koeffitsiyentini (R-kvadrat) 0,96 ko'rsatadi, bu o'zgaruvchilar o'rtasidagi kuchli aloqani ko'rsatadi.

Bundan tashqari, modeldagi sifat koeffitsiyenti ijobiydir. Bundan tashqari, ARDL (1,2,2,2) testi o'tkazilganda, natijalar F-statistika va t-statistika 0,05 ahamiyatlilik darajasida statistik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Natijada nol gipoteza (H0) muqobil gipoteza (H1) foydasiga rad etildi.

Tadqiqot bo'yicha ARDL(1,2,2,2) Bound test orqali model kointegratsion holati tekshirildi (4-jadvalga qarang).

4-jadval: Koitegaratsiya uchun Bound testi [31]

| | | | | | F = 15.623 |
|---|---|---|---|---|---|
| | [I_0] [I_1]<br>L_1 L_1 | [I_0] [I_1]<br>L_05 L_05 | [I_0] [I_1]<br>L_025 L_025 | [I_0] [I_1]<br>L_01 L_01 | |
| K_4 | 2.45 3.52 | 2.86 4.10 | 3.25 4.49 | 3.74 5.06 | |

Yuqoridagi 4-jadvalda ko'rsatilganidek, F-qiymati kritik qiymatdan katta va biz ushbu holatda kointegratsiyaning yo'qligi haqidagi nol gipotezani rad etamiz. F-statistik qiymati 15.263 qiymatini tashkil etib barcha intervallarda kritik chegaralardan oyuqori bo'ldi va Bound testi uchun ijobiy natijani ko'rsatdi. Tanlagan muhimlik darajasida F-qiymati kritik qiymatdan katta ekanligini inobatga olib, ushbu modelda kointegratsiyaning mavjudligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan ARDL(1,2,2,2) modeliga ko'ra quyidagi natijaga erishildi.

30 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.
31 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

## NATIJA

Sug'urta kompnaniysidagi sug'urta shartnomalari sonining 1 % ga ortishi natijasida sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar sonining 0.40 % ga ortishiga olib keladi. Sug'urta kompaniyasidagi sug'urta mukofotining 1% ga ortishi natijasida sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar sonining 0.33 % ga ortishiga olib keladi. Shuningdek, sug'urta kompaniyasidagi sug'urta qoplamasininig 1% ga ortishi natijasida sug'urta kompaniyasidagi anderrayterlar sonining 0.64 % ga ortishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotning navbatdagi qadamda ARDL(1,2,2,2) modeli bo'yicha CUSUM diognostik testi tekshirildi. (4 va 5-rasmlarga qarang).




4- rasm: CUSUM diognostik testi grafigi [32]




5- rasm: CUSUM diognostik testi grafigi [33]

ARDL(1,2,2,2) modelida qo'llaniladigan CUSUM (Kummulyativ summa) diagnostik testi gipotezalarini quyidagicha ifodalash mumkin.

Nol gipoteza (H0): ARDL modelidagi parametrlar vaqt o'tishi bilan barqaror bo'lib, o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarda tizimli o'zgarishlar yo'q. Bu shuni anglatadiki, model butun davri uchun haqiqiy va ishonchli.

Muqobil gipoteza (H1): ARDL modelidagi parametrlar vaqt o'tishi bilan barqaror emas va o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarda tizimli o'zgarishlar mavjud. Bu shuni ko'rsatadiki, model butun davri uchun amal qilmaydi.

Yuqoridagi 4 va 5-rasmlarda keltirilgan ma'lumotlarni sharhlash shuni ko'rsatadiki, CUSUM diagnostik testi statistikasi doimiy ravishda kritik chegaralar ichida qolgan va hech qanday e'tiborga loyiq o'zgarishlar aniqlanmagan.

Tadqiqot bo'yicha ARDL modeli Gaus Markovning muhim shartlarini diagnostik testlari asosida tekshirildi.

32 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.
33 Stata dasturi asosida muallif tomonidan mustaqil ishlab chiqildi.

Ekonometrik model bir nechta diagnostik testlardan o‘tkazildi va quyidagi natijalarga erishildi:

- **Durbin-Watson testi** 2,35 qiymatini tahskil etdi.
- **Breusch-Pagan testi** 0,10 qiymatini ko‘rsatdi.
- **Shapiro-Wilk W testi**da 0,60 natija qayd etildi.
- **Breusch-Godfrey LM testi** o‘tkazildi, natijada 0,10 qiymatiga erishildi.

Tadqiqot davomida birlamchi gipoteza $H_0$:y=0 va uning muqobil $H_1$:y≠0, r>0,05 bo‘lgan muhimlik darajasida statistik sinovdan o‘tkazildi.

Durbin-Watson, Breusch-Pagan, Shapiro-Wilk W va Breusch-Godfrey LM testlari bajarilgandan so‘ng, r > 0,05 mezonini hisobga olgan holda muqobil gipoteza qo‘llab-quvvatlanmadi.

Shu sababli, bizning tahlilimizda mustaqil o‘zgaruvchilar bilan xato atamalarining korrelyatsiyasi yo‘qligini tasdiqlovchi Gauss-Markov taxmini to‘g‘ri deb xulosa qilish mumkin. Tadqiqotda foydalanilgan ekonometrik model Gauss-Markovning muhim shartlariga muvaffaqiyatli o‘tkanligini o‘z tasdig‘ini topgan.

## XULOSA

Tadqiqot bo‘yicha milliy iqtisodiyotda sug‘urta kompaniyalaridagi anderrayterlar, sug‘urta kompaniyalrida sug‘urta shartnomalari, sug‘urta mukofotlari hamda sug‘uta qoplamasini o‘zaro ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tahlillar va xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. **ARDL(1,2,2,2) modeli**ga ko‘ra,

Sug‘urta shartnomalari sonining 1% ga o‘sishi anderrayterlar sonining 0,40% ga oshishiga olib keladi:

Ushbu natija shuni ko‘rsatadiki sug‘urta shartnomalari soni va sug‘urta kompaniyasidagi anderrayterlar soni o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikdan dalolat beradi. Kompaniya sug‘urta shartnomalari sonining o‘sishini boshdan kechirganda, ortib borayotgan ish yukini boshqarish uchun anderrayting bo‘limini kengaytirishi kerak. Ushbu natija anderrayterlarga bo‘lgan talab kompaniyaning shartnoma hajmiga mos kelishidan dalolat beradi.

2. **ARDL(1,2,2,2) modeli**ga ko‘ra,

Sug‘urta mukofotlarining 1% ga oshishi anderrayterlar sonining 0,33% ga oshishiga olib keladi.

Sug‘urta mukofotlari va anderrayterlar soni o‘rtasida ijobiy korrelyatsiyani nazarda tutadi. Sug‘urta mukofot lari ortganda, bu sug‘urta kompaniyasi uchun yuqori daromadni ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ortgan daromadni samarali boshqarish va polis egalariga xizmat ko‘rsatish uchun kompaniya qo‘shimcha anderrayterlarni yollashi kerak bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

3. **ARDL(1,2,2,2) modeli**ga ko‘ra,

Sug‘urta qoplamalarining 1% ga oshishi anderrayterlar sonining 0,64% ga o‘sishiga olib keladi:

Bu ijobiy munosabat shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta qoplamasi kompaniyadagi anderrayterlar soniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Sug‘urta qoplamasi kengayib borayotganligi sababli, bu siyosat va da’volarni samarali qayta ishlash va baholash uchun ko‘proq anderrayterlarga ehtiyoj borligini ko‘rsatishi mumkin. Nisbatan yuqori 0,64 koeffitsiyenti sug‘urta qoplamalari bilan sug‘urta mukofotlari 0,33 koeffitsiyenti bilan taqqoslaganda sug‘urta qoplamasi va anderrayterlarga bo‘lgan talab o‘rtasidagi kuchli bog‘liqlikdan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida ekonometrik natijalar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta shartnomalari soni, sug‘urta mukofotlari va sug‘urta qoplamasi sug‘urta kompaniyasidagi anderrayterlar soniga ijobiy va statistik jihatdan muhim ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu xulosalarga ko‘ra, kompaniyada anderrayterlar uchun kadrlarga bo‘lgan talablarga shartnomalar o‘sishi, yuqori mukofotlar va kengaygan qamrov ta’sir qiladi. Sug‘urta sohaisning bu jihatlari o‘sayotkanligi sababli, kompaniya ortib borayotgan ish yukini boshqarish va sug‘urtalovchilarga samarali xizmatlar ko‘rsatish uchun ko‘proq anderrayterlarga va anderrayting xizmatlariga ehtiyoj ko‘payotkanligidan dalolat beradi.

Keng speaktrli anderrayting xizmatlari sug‘urta kompaniyalariga ma’lum bir shaxs yoki biznesni sug‘urta qilish bilan bog‘liq risklarni yaxshiroq baholash imkonini beradi. Bu sug‘urta polislarining narxini yanada aniqroq belgilashga olib keladi, ortiqcha yoki past baholanish ehtimolini kamaytiradi. Bu, o‘z navbatida, sug‘urta kompaniyalariga moliyaviy ko‘rsatkichlarida rentabellikni saqlashga imkon beradi.

Murakkab anderrayting xizmatlari bilan sug‘urta kompaniyalari o‘z mijozlarining o‘ziga xos ehtiyojlarini yaxshiroq qondirish uchun sug‘urta polislarini moslashtiradi hamda ushbu moslashtirish mijozlarning qoniqishi va sodiqligiga olib kelishiga turtki bo‘ladi.

Risklarni baholash imkoniyatlarini yaxshilash orqali sug‘urta kompaniyalari o‘zlari taklif qilayotgan xizmatlar turlarini kengaytiradi bu o‘z navbatida kompaniya uchun yangi bozorlar va daromad manbalarini ochishiga zamin yaratadi.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. https://www.mckinsey.com/industries/financial-services/our-insights/insurance-2030-the-impact-of-ai-on-the-future-of-insurance#/ "Sug'urta 2030 – AI ning sug'urta kelajagiga ta'siri" Ramnath Balasubramanian, Ari Libarikian, Dag Makelhani
2. Soye, Yinka Augustine, and Damola Lukmon Adeyemo. „Underwriting capacity and income of Insurance companies:(a case of Nigeria)."International Journal of Innovative Science and Research Technology 3.10 (2018): 731-738.
3. Acharyya, Madhu. „In measuring the benefits of enterprise risk management in insurance: An integration of economic value added and balanced score card approaches."ERM Monograph (2008): 1-25.
4. Cummins, J. David, and Patricia M. Danzon. „Price, financial quality, and capital flows in insurance markets."Journal of financial intermediation 6.1 (1997): 3-38.
5. Dhaene, Jan, et al. „The concept of comonotonicity in actuarial science and finance: theory."Insurance: Mathematics and Economics 31.1 (2002): 3-33.
6. Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. „Insurance versus self-insurance: A risk management perspective."Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.
7. Brockett, Patrick L., Samuel H. Cox Jr, and Robert C. Witt. „Insurance versus self-insurance: A risk management perspective."Journal of Risk and Insurance (1986): 242-257.
8. Dicke, Arnold A. „The economics of risk selection."Genetics and Life Insurance: Medical Underwriting and Social Policy (2004): 64-6.
9. Lai, Gene C., and Robert C. Witt. „Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis."Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).
10. Lai, Gene C., et al. On Liability Insurance Crises. Working Paper, 45pp, 1997.
11. Lai, Gene C., and Robert C. Witt. „Changed Insurer Expectations: An Insurance-Economics View of the Commercial Liability Insurance Crisis."Journal of Insurance Regulation 10.3 (1992).
12. Weiss, Mary A. „Systemic risk and the US insurance sector."Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).
13. Weiss, Mary A. „Systemic risk and the US insurance sector."Center for Insurance Policy & Research, National Association of Insurance Commissioners. http://www. naic. org/documents/cipr_weiss_systemic_risk_100223. pdf (2010).
14. Denuit, Michel, et al. Actuarial theory for dependent risks: measures, orders and models. John Wiley & Sons, 2006.
15. Andres, Christian, André Betzer, and Peter Limbach. „Underwriter reputation and the quality of certification: Evidence from high-yield bonds."Journal of Banking & Finance 40 (2014): 97-115.
16. Mohseni, Mehrnoosh, and Feizolah Jouzaryan. „Examining the effects of inflation and unemployment on economic growth in Iran (1996-2012)."Procedia Economics and Finance 36 (2016): 381-389.
17. Özer, Mustafa, and Veysel Karagöl. „Relative effectiveness of monetary and fiscal policies on output growth in Turkey: an ARDL bounds test approach."(2018).
18. Ghouse, Ghulam, Saud Ahmed Khan, and Atiq Ur Rehman. „ARDL model as a remedy for spurious regression: problems, performance and prospectus."(2018): 1-29.
19. Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. „Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach."The Pakistan Development Review (2008): 501-513.
20. Boufateh, Talel, and Zied Saadaoui. „Do asymmetric financial development shocks matter for CO 2 emissions in Africa? A nonlinear panel ARDL–PMG approach."Environmental Modeling & Assessment 25 (2020): 809-830.
21. Hasan, Arshad, and Zafar Mueen Nasir. „Macroeconomic factors and equity prices: An empirical investigation by using ARDL approach."The Pakistan Development Review (2008): 501-513.
22. Nkoro, Emeka, and Aham Kelvin Uko. „Autoregressive Distributed Lag (ARDL) cointegration technique: application and interpretation."Journal of Statistical and Econometric methods 5.4 (2016): 63-91.
23. Jordan, Soren, and Andrew Q. Philips. „Dynamic Simulation and Testing for Single-Equation Cointegrating and Stationary Autoregressive Distributed Lag Models."R Journal 10.2 (2018).
24. Telfah, Duaa B., Nawal Louzi, and Tala M. AlBashir. „Water demand time series forecast by autoregressive distributed lag (ARDL) co-integration model."Journal of Water and Land Development (2021).

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.